

Hozirgi taraqqiyot bosqichida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini tashkil qilishning istiqbollari: muammo va yechimlar. Xalqaro miqyosidagi ilmiy amaliy-anjuman. 2022 yil 28-29 aprel

## 5-SHO'BA: OLIMPIYA HARAKATLARI RIVOJINING IJTIMOIY-PEDAGOGIK ASOSLARI

### OLIMPIYADA O'YINLARI TARIXINI O'RGANISHNING SPORTCHI YOSHHLAR MA'NAVIY TARBIYASIDAGI O'RNI

10.53885/edinres.2022.93.60.096

A.Xasanov. A.X.Xasanov

Dotsent, Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutii, "Ijtimoiy fanlar" kafedrasi mudiri O'zbekiston, Toshkent.  
[xasanov\\_1955@bk.ru](mailto:xasanov_1955@bk.ru)

Место изучения истории олимпийских игр в духовном воспитании юных спортсменов А.Х.Хасанов

Институт переподготовки и повышения квалификации специалистов по физической культуре и спорту, доцент кафедры «Общественных дисциплин»

Узбекистан, Ташкент  
[xasanov\\_1955@bk.ru](mailto:xasanov_1955@bk.ru)

### THE ROLE OF STUDYING THE HISTORY OF OLYMPIC GAMES IN THE SPIRITUAL EDUCATION OF YOUNG ATHLETES

A.X.Hasanov

Institute of retraining and advanced training of specialists in physical culture and sports, dotsent of "Social Sciences"

Uzbekistan, Tashkent  
[xasanov\\_1955@bk.ru](mailto:xasanov_1955@bk.ru)

**Kalit so'zlar:** sport, Olimpiya, muqaddas olov, beshkurash, Zevs, ozod yunon

**Аннотация:** Maqolada olimpiya o'yinlari tarixi, uning yoshlar ma'naviy tarbiyasidagi o'rni, o'yinlar qoidalari, shuningdek. qaysi sport turlaridan musobaqalar o'tkazilgani haqida so'z boradi

**Аннотация:** В статье рассказывается об истории древних олимпийских игр, а также, о роли этих игр в духовном воспитании юных спортсменов, рассматриваются правила и ход игр и по какими видами спорта проводились олимпийские соревнования

**Annotation:** The article tells about the history of the ancient Olympic Games, as well as the rules and course of the games and what kinds of sports were organized for Olympic events

Qadimgi Yunonistonda boshlangan olimpiyada o'yinlari tarixini o'rganishning sportchi yoshlar ma'naviy tarbiyasidagi o'rni juda ham beqiyos. Zero, ular yoshlarni Vatanni sevish, uni jon-jahdi bilan himoya qilish, mard, jasur va qo'rmas bo'lishga chorlagan. Darhaqiqat, bolalikdan yunonlar ongiga jamoat ishlari shaxsiy yumushlardan yugori turishi hagidagi g'oya singdirilar edi. Maktablar faol fugarolar, vatan himoyachilarini tarbiyalashi lozim edi. Sportni rivojlantirish va olimpiyada o'yinlariga ommaviy qiziqish ham shunga xizmat qilar edi.

Arslonni yenggan Gerakl haykaliga nazar tashlaymiz. Qadimgi yunon haykaltaroshi Geraklni barvasta va pahlavon sifatida tasvirlagan. Orqa oyoqlarida turib olgan bahaybat arslon esa Geraklning elkasidan ham kelmaydi. Ammo nega Gerakl libossiz tasvirlangan? Bu qadimgi yunon tasviriy san'atining o'ziga xos jihatlaridan biridir. Haykaltarosh nazarida Geraklning kuch-qudratini ko'rsatish muhim edi. Bordi-yu usta haykaltarosh bahodirni kiyimda tasvirlasa, uning arslonni yengayotgan mushak va changallaridagi kuchni ko'rmagan, qudratli, mashq korgan tanasi gozalligini his etmagan bo'lardik. Bunday manzarani sportning disk uloqtirish va boshqa sport turlarida ham ko'rishimiz mumkin.

Birinchi Olimpiyada o'yinlari miloddan avvalgi 776-yilda Yunoniston janubidagi Olimpiya shaharchasida bo'lib otgan. Bu shahar diniy markaz bo'lib, u erda Yunonistonning barcha burchaklaridan sportchilar kelishgan. Bu aholi punkti edi, shahap emasdi, balki ruhoniyalar panteon ilohlarni ululash uchun yig'ilishgandi. Har to'rt yilda bir marta ular sportchilarni "Olimp xudolariga yaqin", "odamlar orasida eng zo'r" va "tanlanganlar" deb atash uchun sport musobaqalarini o'tkaza boshladilar. Keyin musobaqalar kongil ocharligi tufayli bu an'ana Yunonistonning barcha hududlaridan sportchilarni jalb qilishni boshladi. Yunonlar o'yinlarga katta ahamiyan berichardi. O'yinlar paytida "muqaddas tinchlik" e'lon qilinardi, urushlar to'xtatilardi va "kechagi dushmanlar" eng tezkor, chaqqon va kuchli deb nomlanish huquqi uchun tinchlik sari kurashardilar.

Sport barcha yunonlar uchun sevimli mashg'ulot bo'lgan ekan. Miloddan avvalgi 776-yilda ilk bor otkazilgan Olimpiya o'yinlari turli-tuman sport musobaqalari orasida eng asosiysi hisoblangan. Ana

**Hozirgi taraqqiyot bosqichida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini tashkil qilishning istiqbollari: muammo va yechimlar.** Xalqaro miqyosidagi ilmiy amaliy-anjuman. 2022 yil 28-29 aprel

shu sanadan boshlab har to'rt yilda bir marta Olimp tog'ida muqaddas olov Quyosh nurlaridan yondirilar, Yunonistonning to'rt tarafidan kelgan sportchilar beshkurashda bellashar edilar. Beshkurash esa uzunlikka sakrash, disk uloqtierish, nayza uloqtirish, yugurish, куч синашиш va kurashdan iborat bo'lgan. Ot choparda esa aravalarda va otlarda poyga uyushtirilar edi. Dastlabki Olimpiya o'yinlarida faqatgina bitta musobaqa - yugurish bol'gan (192,27 metr masofaga). Qadimiy Olimpiya o'yinlari dasturida yakka kurashning uch xil turi – boks, kurash va pankration ham bo'lgan.

Odamlar va sportchilar Olimpiyaga eson-omon etib kelishlari uchun o'yinlar o'tkazilayotgan paytda urushlar to'xtatilgan. Yunonistondagi Olimpiya o'yinlari oliy xudo, yunonlarning 18 ta xudosining rahnamosi, Olimp xudosi Zevs sharafiga bag'ishlab o'tkazilgan. Afsonalarga kora olimpiyada oyinlari asoschisi Gerakl hisoblangan.

Olimpiya o'yinlari qayerdan paydo bolganligini bir o'ylab ko'raylik. Olimpiya nima o'zi, nima uchun har to'rt yilda o'tkaziladi? Ehtimol, ko'pchiligidan Olimpiya Gretsiyadagi tog ' ekanini va afsonaga ko'ra, ellinlarning ma'budlari o'sha tog'da yashab, gullab-yashnaganini va u erda aravalardan shu kabi jiyozlarda biror musobaqlar bo'lib o'tganligini eshitgandirmiz.

Qadimgi Yunonistonda o'tgan Olimpiya o'yinlari o'ziga xos milliy ruhda tashkil etilgan. Olimpiya o'yinlarda faqat jinoyat sodir etmagan, shaniga dog' tushirmagan, ozod tug'ilgan yunon ishtirok etishga va ularni tomosha etishga haqli edi. Musobaqlarda uch karra g'olib bolgan sportchi Olimp tog'ida o'z haykalini o'rnatishga haqli bo'lgan.

Yunonlar yil hisobini ham Olimpiya o'yinlariga qarab yuritganlar. G'oliblar muqaddas zaytun daraxti novdalaridan to'qilgan gulchambar bilan taqdirlangan. Ayollar Olimpiya o'yinlarda qatnasha olmasdi. Ullar o'yinlar paytida hatto Olimp tog' yaqiniga ham kela olmasdilar. Faqatgina bitta ayol - dehqonchilik va hosildolik ilohasi Demetra sharafiga qurilgan ibodatxonasining xizmatchisi kirishi mumkin bo'lgan, buning uchun unga alohida joy hozirlangan. Ayollar uchun yugurish boyich alohida musobaqlar o'tkazilar edi.

Milodiy 394-yilda ustma-ust sodir bo'lgan zilzila oqibatida Olimpiya vayron bo'lgani sababli qadimiy Olimpiya o'yinlari ham o'tkazilmay qoldi. Yana boshqa manbalarga qaraganda 394-yilda Rim imperatori Feodosiy I Olimpiya o'yinlarini o'tkazishni taqiqlagan. Rimliklarning fikricha, Olimpiyada xristiyan dinining yunonlar orasida tarqalishiga salbiy ta'sir ko'rsatgan va to'sqinlik qilgan va 1500 yil davomida jahon Olimpiya o'yinlaridan mahrum bo'ldi.

Nihoyat 1894-yilda Olimpiya o'yinlari qayta tiklandi. Olimpiya o'yinlari ochiladigan kunda qadimgi mash'ala yoqish odati hozirgacha saqlanib qolgan. Quyosh nurlaridan yondirilgan mash'ala Olimpiya musobaqlari o'tkaziladigan joyga hozir ham keltiriladi.

#### Adabiyotlar ro'xati

1. Mirziyoyev SH.M. O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora tadbirdi to'g'isida. PF-5924 son Farmon. 2020 yil 24 yanvar
2. Boynazarov F. Qadimgi dunyo tarixi. Toshkent, "Meros", 2004-yil, 153-156- betlar
2. Karomatovich I. A. PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL SUPPORT OF YOUNG TEAM ATHLETES //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – T. 3. – №. 02. – C. 1011-1016.
3. Ibragimov A. K. DEVELOPING THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF TEACHERS AS A PEDAGOGICAL PROBLEM //E-Conference Globe. – 2021. – C. 333-338.
4. Karomatovich I. A. METHODS OF TEACHING CHILDREN FOR MOVEMENT ACTIVITIES IN THE PROCESS OF PHYSICAL EDUCATION //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – T. 3. – №. 1. – C. 242-249.
5. Ibragimov A. K. Catalog of training tasks for training special endurance of young girl handball players. Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal. Year: 2020, Volume: 10, Issue: 11. P: 486-492. DOI: 10.5958/2249-7137.2020.01410. X.
6. Narzullayev, Farrux. "Qizlar sporti yo'nalishi bo'yicha tahsil olayotgan qizlarning yengil atletika darslarida kuch sifatlarini rivojlantirishning pedagogik asoslari." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 1.1 (2020).
7. Ashrapovich, N. F. (2021). Determination of physical development of primary school students through national movement games. Middle European Scientific Bulletin, 11.
8. Ashrapovich, N. F. (2022). FORMS OF CONTROL OVER THE PROFESSIONAL AND PEDAGOGICAL ACTIVITY OF THE TRAINER AND ITS PEDAGOGICAL SIGNIFICANCE. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(1), 372-379.
9. Akmalovich, D. B. (2020). Organization of independent work of students in the process of physical education. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR), 9(11), 120-123.

10. Safarova Rokhat G. Ways and factors of optimization of the content of general secondary education in today's world // Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития. 2012. №2 (eng). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ways-and-factors-of-optimization-of-the-content-of-general-secondary-education-in-today-s-world> (дата обращения: 09.05.2022).
11. Мухитдинова Н.М. Абитова Ж.Р. Механизмы интеллектуального развития дошкольников с помощью физических занятий // Проблемы педагогики.- 2020- № 3 (48) с 79-81
12. Мухитдинова Н.М. Методология физических упражнений и игр в дошкольных образовательных организациях // Проблемы науки-2020-№9 (57) с 81-83
13. Мухитдинова Н.М. Эшов Э. Improvement of psychology and pedagogical process on physical training // Intellectual Archive 2018 с 93-96
14. Djurayeva Maxasti Zokirqizi "The emotion training system for atudents of preschool education for sports gymnastics sports competitions" 88-101 betlar. International Journal of Advanced Research in Management and Social Sciences. Vol.1 №2 February 2022
15. Джураева Махасти Зокировна "Характеристика эмоционально –воловой готовности личности к спортивной деятельности" 169-171 betlar. Россия-Таджикистан –Узбекистан. молодежь и развитие духовной культуры общества: актуальные проблемы и перспективы их решения. 22апреля 2022г.
16. Маъмуроев Б. Б. Бўлажак ўқитувчиларни шахса йўналтирилган таълим-тарбия жараёнини лойиҳалашга тайёрлашда қўлланиладиган тамоиллар. Современное образование (Узбекистан), 2017. <https://cyberleninka.ru/article/n/b-lazhak-ituvchilarni-shahsga-y-naltirilgan-talim-tarbiya-zharayonini-loyi-alashga-tayyorlashda-llaniladigan-tamoyillar>
17. Mamurov B. B. The Need to Prepare Future Teachers to Design a Student-Centered Educational Process. Eastern European Scientific Journal, 2017. <http://journale.auris-verlag.de/index.php/EESJ/article/viewFile/600/596>
18. Мамуров Б.Б., Махмудов М.Х. Акмеологическая составляющая образовательной культуры учителя. философские и методологические. <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=36679921>
19. B Mamurov, A Mamanazarov, K Abdullaev, I Davronov. Acmeological Approach to the Formation of Healthy Lifestyle Among University Students. III International Scientific Congress Society of Ambient ..., 2020. <https://www.atlantis-press.com/proceedings/isc-sai-20/125937241>
20. ББ Мамуров. Акмеологический подход к воспитанию молодого поколения в наследии предков. Педагогическое образование и наука, 2016. [http://www.manpo.ru/manpo/publications/ped\\_obraz/n2016\\_03.pdf#page=147](http://www.manpo.ru/manpo/publications/ped_obraz/n2016_03.pdf#page=147)
21. Маъмуроев Б.Б. Маманазаров А.Б. Условия развитие у будущих учителей навыков проектирования учебного процесса на основе акмеологического подхода. <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=37269472>
22. Файзиев Я. З., Зиёев Д. Я. У. краткий исторический обзор развития физического воспитания и спорта //Academy. – 2020. – №. 9 (60).
23. Файзиев Я. З., Кузиева Ф. Эффективности использования национальных средств физического воспитания в учебном процессе //Вестник магистратуры. – 2020. – №. 3-1. – С. 95.
24. U. A. Fayzieva, M. T. Khikimova. Conditions of effectiveness of pedagogical communication. <https://mbukckslg.ru/en/usloviya-uspeshnogo-pedagogicheskogo-obshcheniya-ego-funkcii-organizaciya.html>
25. Fayziyeva Umida Asadovna Saidnazarova Gulshan Bolta qizi. "Ta'lim texnologiyalari" fanidan seminar mashg'ulotlarini bajarish bo'yicha metodik ko'rsatma. [http://213.230.96.51:8090/files/ebooks/Iqtisodiyot/TALIM\\_TEXNOLOGIYALARI.pdf](http://213.230.96.51:8090/files/ebooks/Iqtisodiyot/TALIM_TEXNOLOGIYALARI.pdf)